

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA‘LIMI VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**



“MAKTABGACHA TA‘LIM: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

2-kitob

2023 yil 30 may

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, O‘zbekiston



"PRESCHOOL EDUCATION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND MODERN APPROACHES"

International scientific-practical conference

May 30, 2023

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, Uzbekistan

Tashkent - 2023

**“MAKTABGACHA TA’LIM: XALQARO TAJRIBA VA ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR” mavzusida o‘tkaziladigan Xalqaro ilmiy amaliy anjumanining tahririy
komissiyasi
TARKIBI**

№	F.I.Sh.	Lavozimi	Tahririy komissiyasi lavozimi
1	M.T.Hamdamaova	Maktabgacha ta’lim fakulteti dekani, dotsent (PhD)	Komissiya raisi
2	N.N.Djamilova	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasida p.f.d., professori	Komissiya raisi o‘rinbosari
4	D.R.Babayeva	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasida p.f.n., professori	Komissiya raisi o‘rinbosari
5	Sh.A.Sadikova	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasida p.f.n., professori	A’zo
6	F.U.Jumanova	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta’lim metodikasi kafedrasida mudiri, dotsenti	A’zo
7	G.Sh.Shirbacheva	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasida mudiri, v.b. dotsenti (PhD)	A’zo
8	D.A.Choriyeva	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasida v.b. dotsenti (PhD)	A’zo
9	N.T.Jo`rayeva	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Maktabgacha ta’lim pedagogikasi va psixologiyasi kafedrasida v.b. dotsenti (PhD)	A’zo

Zoom manzili:

<https://us02web.zoom.us/j/5226377287?pwd=ZGg5cGdaRDV6eFF3bGorU1RDN1dYZz09>

Konferensiya identifikatori

Rais: dots. M.T.Hamdamaova

Kotib: dots.v.b. D.A.Choriyeva

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI XUSUSIYATLARI

*Abdullayeva Feruza Chirchiq davlat Pedagogika Unversiteti o'qtuvchisi,
Umarova Madina Chirchiq davlat Pedagogika Unversiteti 1-kurs talabasi*

Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha bolalik davri katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari rivojlanadi hamda shaxsiy sifatleri tarkib topa boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar hayotida va ularning psixik jihatdan o'sishida qiziqishning roli kattadir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi. Maktabgacha yoshi – bu bola atrofidagi dunyoni faol o'rganadigan davr. Maktabgacha yoshdagi bolalar o'zlarining psixologik rivojlanish xususiyatiga ega. Yurishni boshlaganida bola juda ko'p kashfiyotlar qiladi, xonada, ko'chada, bolalar bog'chasida joylashgan narsalar bilan tanishadi. Haqiqatan ham bolaning maktabgacha yoshdagi davri shu qadar mazmundor va faol davriki bu davr bolaning kelgusi o'sishida albatta o'z aksini qoldiradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagi davr ta'sir o'tazish kuchi jihatidan g'oyat mas'umatlidir.

Bola ilk yoshdan maktabgacha davrga o'tgach, uning butun yashash sharoitida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Chunki, bola bog'cha yoshiga o'tgach uning faoliyat doirasi kengayib mustaqilligi yanada ortadi. Uning o'yinlari, xatti harakatlari ham boshqacha mazmunga ega bola boshlaydi.

Bolaning butun faoliyatida nutqning o'rni orta boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini bir muncha to'la o'zlashtirganlari va haddan tashqari harakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosabatda bolish ehtiyoji tug'ladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosabatlarga intila boshlaydilar. Ular endi bog'chadagi o'rtoqlari va qo'ni – qo'shnilarining bolalari bilan ham jamoa bo'lib o'ynashga harakat qiladilar.

Bola maktabgacha yoshga o'tgach, muayyan dastur asosida maxsus pedagog tomonidan tarbiyalana boshlaydi. Ijtimoiy hayot tushunchalarini chuqurroq o'rgana boshlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning yashash sharoitida yuzaga kelgan bu o'zgarishlar uning jismoniy va psixik jihatdan o'sib kamol topishiga ta'sir etmay qolmaydi. Bola bog'cha yoshiga yetgach, uning psixik taraqqiyotida jiddiy o'zgarishlar yuzaga keladi. Chunki, xuddi ana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati anchagina kengayib boradi.

3-4 yoshli bolalarning psixik jihatdan rivojlanishlarida ularda paydo bo'ladigan xilma-xil ehtiyoj va qiziqishlar juda katta ahamiyatga ega. Masalan, maktabgacha ta'lim yoshida hali to'liq gapira olmasalar ham, haddan tashqari qiziquvchan bo'ladilar. Ular ko'zlariga ko'ringan har bir narsani qo'llari bilan ushlab ko'rmaganlaricha tinchimaydilar.

Maktabgacha yoshidagi bolalarning psixik jihatdan rivojlanisharida maktabgacha ta'lim tashkiloti muhiti katta ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tartib-intizom, ta'limiy mashg'ulotlar, didaktik o'yinlar va tarbiyachi nutqi bolani e'tiborini tortib, psixologik rivojlanishga olib keladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi o'quv jihozlari rang-barang, havfsiz va bolalarni e'tiborini tortadigan bo'lishi kerak. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalarda diqqat, xotira, tafakkur, idrok va hayol rivojlanayotgan davr hisoblanadi. Shuning uchun bolaning atrof-muhitidagi har bir narsa-hodisaga e'tiborli bo'lish kerak. Ilk bolalik davri bola hayotidagi eng ahamiyatga molik, uning kelajakdagi psixologik rivojlanishini belgilab beruvchi muhim davr hisoblanadi. Bu davrdagi rivojlanishning asosini bolaning to'g'ri yurishi, muloqotga kirishishi va predmetli faoliyatini egallash xususiyatlarini tashkil etadi. Tikka va to'g'ri yurish imkoni bolani doimiy ravishda yangi ma'lumotlarni egallashga zamin bo'ladi. Ilk bolalik davridagi bolaning turmush tajribasi deyarli yo'q bo'lgani uchun ham hamma narsa qiziqtiradi. U o'zining kundalik tinimsiz harakatlari davomida kattalarga taqlid qilib, mustaqil ravishda kiyinishi, ovqat yeyishi, yuvinish kabi xarakterlarni o'zlashtira boshlaydi. Bog'cha yoshidan boshlab bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlana boshlaydi. Biroq kichik yoshdagi bog'cha bolalarida ixtiyorsiz diqqat rivojlanadi. Kichik yoshdagi bog'cha bolalarida kun sayin paydo boladigan yangi yangi qiziqishlar, o'yin faolliyatlarining xilma xil bo'la borishi ularda ixtiyorsiz diqqatni asta sekin takomillashtirib boradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ularning ota-onalariga taqlid qilishga moyillik muhim omil hisoblanadi. Bu haqda A.Makarenko shunday yozgan edi: "Faqat u bilan gaplashib, o'rgatganingizda yoki buyruq berganingizdagina bolani tarbiyalayman, deb o'ylamang, siz uni hayotingizning har bir daqiqasida hatto bo'lmaganingizda ham tabiiyalaysiz. Uyda qanday kiyinishingiz, boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingiz, atrofda insonlarga qanday munosabatda bolasiz, qanday xursand bo'lasiz yoki qayg'urasiz, qanday kulasiz, gazetani qanday o'qiyasiz, bularning barchasi bola uchun juda muhimdir".

Bolalik – bu odamning eng tezkor va jadal davri. Boshqa hech qanday yoshda bir kishi erta va maktabgacha bolalik kabi juda ko'p o'ziga xos bosqichlarni o'tkazmaydi. U hayotning dastlabki 5-6 yilida mutloq nochor odamni o'z manfaatlari fe'l atvor belgilari, odatlari, qarashlari bilan mutloq nochor odamdan chiqaradi. Bu yillar davomida bola yura boshlaydi, narsalar bilan harakat qila boshlagan davri hisoblanadi.

Mashhur rus pedaagolaridan P.F.Lestgaftning fikrichaa, insoning matabgaacha yoshdagi davri shunday bir davri, ana shu davr mobaynida kelgusida qanday harakater xislatlari paydo bo'lishi belgilanadi va axloqiy sifatlarining asosi yuzaga keladi. Insonning kamol topa borishida maktabgacha yoshdagi davrning ahamiyatiga doir P.F.Lestgaftning buyuk rus pedagogi A.S.Makarenkong quyidagi fikriga to'la mos keladi. A.S.Makarenko bolalarni juda kichik davridan tarbiyalash zarurligi haqida gapirib, tarbiyaning eng muhim asoslari bolaning 5 yoshgacha bo'lgan davri mobaynida

yuzaga keltiriladi. Mana shu davrda qilingan butun tarbiya, tarbiya jarayonining 90 foizni tashkil etadi, degan edi.

Bolalar rivojlanishida rol o'ynaydigan yana bir katta narsa bu o'yindir. O'yin bola hayotini 90 foizini o'z ichiga oladi. O'yin davomida ijtimoiy hayot bilan tanishadi, jamoa, hamkorlik tushunchalariga ega bo'ladi. Bollalar o'yin faoliyatining yana bir xususiyati o'yinning umumiylik xarakteriga ega bo'lishidir. Bola o'zining turli-tuman o'yinlarida faqat o'ziga tanish bo'lgan yolg'iz bir kasb egasining emas umuman haydovchilarning, militsionerlarning, tarbiyachilarning, uchuvchilarning xatti- harakatlarini aks etiradi.

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARGA HUQUQIY TARBIYA BERISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Abdumo'minova Lobar Abdujabbarovna Nizomiy nomidagi
TDPU ning mustaqil tadqiqotchisi*

Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarida yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo'lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy ob'ekti fuqaro sanaladi. Fuqaro fuqaroligi huquqiy jihatdan e'tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a'zosi bo'lgan shaxsdir. Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me'yorlarga ongli rioya etish, ma'lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas'ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma'naviy yetuklik asosida muayyan davlatga mansublik. Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

1. Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo'lgan axloqiy va huquqiy me'yorlarga rioya etishga o'rgatib borish.

2. Tarbiyalanuvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish.

3. Tarbiyalanuvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish.

4. Tarbiyalanuvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.

5. Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik, o'z manfaatlarini yurt manfaatlarini bilan uyg'unlashtira olishga erishish, fidoiy fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.

6. Vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalb etish.

Fuqarolarning burchlari quyidagilardan iboratdir: